

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

Road

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 97 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-mayda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

“Zavur kollektor suvlarining kimyoviy tarkibi tahlili va ularni tozalash zarurati (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)”.....	20
Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov	
Forming demand and stimulating sales in Uzbekistan.....	26
Musayeva Shoirazimovna	
Членство в ВТО как драйвер развития: взгляд Узбекистана через призму опыта Вьетнама и Казахстана.....	30
Ж.Я.Нуриллаев	
Mamlakatimizda tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash tartibi va ularning bank tizimi moliyaviy barqarorligiga ta'siri tahlili.....	37
Xolmamatov Farhodjon Kubaevich	
O'zbekiston respublikasida aholi bandligini ta'minlashdagi dolzarb masalalar	44
Ibragimov Elmurod Gulboynor o'g'li	
O'zbekiston respublikasida elektr energiyasi ta'minoti hajmini yalpi ichki mahsulot hajmiga ta'sirini ekonometrik tahlil qilish	48
Fayziyev Rabim Alikulovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarini takomillashtirish amaliyoti	60
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qishloq xo'jaligi kooperativi boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari	67
Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich	
O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmini prognozlashda ekonometrik modellar (yillik)	72
Qodirov Farxod Amirovich, Bo'riyeva Qundiz Muratbaevna	
Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari.....	77
Mahamatova Maftuna	
Xufiyona va yashirin iqtisodiyotning amaliy tahlili o'zbekiston miqyosida.....	83
Koshanov Abdimurat Azat uli	
Soliq tizimini barqarorligini belgilovchi omillar tahlili.....	87
Nurillayev Jasurbek Davronbekovich	
Mahalliy budjetlar daromad manbalarini mustahkamlash omillari.....	92
Soatova Nodira Boboxanovna	



MAHALLIY BUDJETLAR DAROMAD MANBALARINI MUSTAHKAMLASH OMILLARI

Soatova Nodira Boboxanovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
«Moliya va moliyaviy texnologiyalar»
kafedrasi dotsenti, (PhD)
nodirasoatova1979@gmail.com
ORCID: 0000-0003-4528-9795

Annotatsiya: Mazkur maqolada mahalliy budjetlarning soliqli tushumlariga ta'sir etuvchi omillar tadqiq etilgan. Davlat budjeti va mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirishda soliqli daromadlarning roli hamda mahalliy budjetlar soliqli daromadlarining mahalliy budjetlar jami daromadlaridagi salmog'i, mahalliy budjetlarning soliqli daromadlari tarkibi va ularning o'zgarish tendensiyalari, hududlar kesimida mahalliy budjetlar daromadlari tarkibida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Hududlar moliyasi, mahalliy boshqaruv organlari, budjetlararo munosabatlar, yuridik shaxslar, jismoniy shaxslar, majburiy to'lovlar, soliq stavkalari, soliq tizimi, soliq siyosati, soliqli daromadlar, mahalliy budjetni rejalashtirish, mahalliy budjet, daromad siyosati, davlat budjeti, mahalliy soliqlar, daromad bazalari.

Abstract: This article examines the factors affecting tax revenues of local budgets. The role of tax revenues in the formation of state and local budget revenues, the share of local budget tax revenues in total local budget revenues, the composition of local budget tax revenues and their trends, and the structure of local budget revenues by region are analyzed.

Key words: Regional finance, local government bodies, inter-budgetary relations, legal entities, individuals, mandatory payments, tax rates, tax system, tax policy, tax revenues, local budget planning, local budget, revenue policy, state budget, local taxes, revenue bases.

Аннотация: В статье рассматриваются факторы, влияющие на налоговые доходы местных бюджетов. Проанализированы роль налоговых доходов в формировании доходов государственного бюджета и местных бюджетов, доля налоговых доходов местных бюджетов в общем объеме доходов местных бюджетов, состав налоговых доходов местных бюджетов и тенденции их изменения, структура доходов местных бюджетов по регионам.

Ключевые слова: Региональные финансы, органы местного самоуправления, межбюджетные отношения, юридические лица, физические лица, обязательные платежи, налоговые ставки, налоговая система, налоговая политика, налоговые доходы, местное бюджетное планирование, местный бюджет, доходная политика, государственный бюджет, местные налоги, доходные базы.

KIRISH

Jahon tajribasi ko'rsatmoqdaki, budjet-soliq tizimini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlashdan iborat. Mazkur masala, birinchi navbatda, ularning daromad bazalari, jumladan, soliqli daromad bazalari barqarorligiga, mustahkamligiga borib taqaladi. O'z navbatida, mahalliy budjetlar soliqli daromadlari barqarorligining ta'minlanishi, birinchidan, mamlakat hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va tegishli hudud aholisining manfaatlarini ta'minlash, ularning hayotini yanada yaxshilash, turmush darajasi va farovonligini oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ikkinchidan, hududdagi tabiiy



xom ashyo, ishlab chiqarish va mehnat salohiyatidan oqilona foydalanish hamda mahalliy davlat hokimiyat idoralari vakolatlarining kengayishini ta'minlash imkonini beradi. Darhaqiqat, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali 14 ta hudud bo'yicha tuman va shaharlar kesimida ishlab chiqilgan besh yillik hududiy dasturlarni amaliyotga tadbqiq qilish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish reyting ko'rsatkichlari «qoniqarsiz» bo'lgan shahar va tumanlar bo'yicha amaliy chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish vazifalari belgilandi[1].

O'zbekistonda soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi asosida soliq qonunchiligini soddalashtirish, soliq yukini keskin pasaytirish, soliqqa tortiladigan ob'ektlarni to'liq qamrab olish va soliqlarning yig'iluvchanligini oshirish orqali tegishli mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash, mahalliy soliq va yig'implarning soliq ma'muriyatchiligi mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga yo'naltirilgan tadbirlar amalga oshirilmoqda. Amalga oshirilayotgan tadbirlarga muvofiq, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda mahalliy budjetlarning daromadlari barqarorligini ta'minlash va mustahkamlash muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligini tadqiq etish, jumladan, soliqli daromadlarini shakllantirish amaliyotini tahlil qilish va bu boradagi mavjud muammolarni aniqlash, mahalliy budjetlarning daromadlari barqarorligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif-tavsiyalar ishlab chiqish ushbu mazkur mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalliy budjetlar mahalliy davlat hokimiyati organlarining hududlar budjetlari daromadlarini oshirishdan mafaatdorligini oshirishni takomillashtirish yo'llari borasida mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan hamda tadqiq etilgan. Xususan, xorijlik iqtisodchi olim O.Tomasso "Mahalliy budjetlarning daromadlari barqarorligi, moliyaviy salohiyatining ko'rsatkichlari davlat va uning alohida mintaqasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun ma'lumotlar tizimini ifodalashini hisobga olish muhimdir"[2] deya ta'kidlab o'tgan. Ye.Gorina esa, "Moliyaviy barqarorlik - bu mahalliy hokimiyatning aholiga xizmat ko'rsatish bo'yicha o'z majburiyatlarini doimiy ravishda bajarishi, mahalliy budjetning qoniqarli moliyaviy holatini qisqa va uzoq muddatda ta'minlash qobiliyatidir"[3]. Muallif fikriga ko'ra, mahalliy hokimiyatlarning budjetlarning xarajatlar qismini o'z daromadlari hisobidan bajarilishini ta'minlash qobiliyati mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini saqlashning asosiy shartidir.

Mahalliy budjetlarning soliqli daromadlari barqarorligini ta'minlash va uni takomillashtirish bo'yicha iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan o'zlarining tadqiqotlarida va xalqaro konferensiyalarda fikr va muhazalarini keltirib o'tishgan.

Mamlakatimizning ba'zi bir iqtisodchilari soliqlarni milliy daromadni taqsimlash vositasi sifatida ifodalashga harakat qilganlar. Jumladan, "soliqlar – milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida uning bir qismini davlat ixtiyoriga olish shaklidir"[4]. Prof. O.Olimjonovning fikricha, soliqning quyidagicha ta'riflanishi ularning mohiyati kengroq ochib beradi: "Soliqlar davlat va jamiyatning pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida qonun tomonidan belgilab qo'yilgan hajmda va o'rnatilgan muddatda jismoniy va huquqiy shaxslardan davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undirib olinadigan to'lovlardir"[5]. Fikrimizcha, soliqlarga berilgan mana shu ta'rif ularning mohiyatini kengroq ochib beradi.

Yosh iqtisodchi olim va mutaxassislardan biri R.Shomurodov umumlashtirilgan holda soliqlarga shunday ta'rif bergan: "Soliqlar davlat xarajatlarini qoplash uchun pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini to'la qondirish va uning iqtisodiyotga aralashuvini ta'minlash maqsadida yuridik va jismoniy shaxslardan majburiy ravishda, qaytarib bermaslik sharti bilan qonuniy tartibda budjetlarga undirilmagan majburiy to'lovlardir" [6]. Keltirilgan ushbu ta'rifda ham soliqlarning mohiyati ochib berilgan. Bu xildagi fikrlarning mavjudligi soliqlarning iqtisodiy mohiyatini cheklab qo'yadi.

Soliqlar mohiyatini asoslashda prinsipial yondashmoq kerak va bu borada O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimovning "O'zbekiston buyuk kelajak sari" asarida "avvalo soliq tizimi o'ziga xos vazifani – fiskal (xazinani to'ldirish), qayta taqsimlash va rag'batlantirish vazifasini to'la darajada bajarishi kerak"[7] deb alohida ta'kidlab o'tilishi diqqatga molikdir.

A.Islamkulovning fikricha "mahalliy budjet daromadlari bir tomondan ishlab chiqarish jarayonining ishtirokchilari o'rtasida yalpi ichki mahsulot qiymatini taqsimlash natijasi hisoblansa, ikkinchi tomondan mahalliy ahamiyatga ega pul jamg'armasini shakllantirishga xizmat qiluvchi qiymatdir"[8].

Soliqlarga berilgan bunday ta'rif, soliqlarning mohiyatini ochib berishda uning vazifalaridan kelib chiqish zarurligini ko'rsatadi. Soliqlar davlat budjetini to'ldirishning muhim omillaridan bo'lib, budjet daromad qismini eng muhim vazifalarni hal etish uchun zarur miqdorda mablag' bilan ta'minlashi lozim. Shuningdek, soliqlar YalMning bir qismini qayta taqsimlaydi va aholini ijtimoiy himoyalashni ta'minlashda bevosita ishtirok etadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mahalliy budjetlarning daromadlari barqarorligini ta'minlash va uni takomillashtirish bo'yicha mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, mahalliy budjet daromadlari tarkibini qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotni guruxlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashning hozirgi davrida hududlarni moliyaviy barqarorligini ta'minlashda mahalliy budjetlarning ahamiyati yanada ortmoqdaki, ushbu maqsadda mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy budjetlar daromad siyosatining muhim yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoniga muvofiq hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish[9] hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 iyundagi "Mahalliy budjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5075-sonli Farmoni belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash borasida mahalliy budjetlarning solikli daromadlari barqarorligini ta'minlash va tubdan mustahkamlash, yuqori turuvchi budjetlar ajratmalariga qaramligini qisqartirish maqsadida mahalliy budjetlarni kompleks rivojlantirish barqaror moliyalashtirilishini ta'minlash, markaz budjetiga qaramlikni keskin kamaytirish, budjetlararo munosabatlarni tubdan isloh qilish orqali mahalliy budjetlar mablag'larini boshqarishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining mustaqil ish olib borishini kuchaytirish mamlakat budjet siyosatining asosiy vazifalari etib belgilangan[10].

Yuqorida ko'rsatib o'tilganlardan kelib chiqib shuni alohida ta'kidlash joizki, mahalliy boshqaruv organlari faoliyatining asosiy puitsiplaridan biri uning moliyaviy mustaqilligi bo'lib, mahalliy budjetlar solikli daromad bazalarini mustahkamlamasdan, uning imkoniyatlari darajasi yetarililigini ta'minlamasdan, mazkur prinsipga rioya qilish mumkin emas. Shu boisdan, mahalliy budjetlarning solikli daromadlar bazasini mustahkamlash hamda barqaror daromad siyosati motivatsiyasi muhim ahamiyatga ega.

Mahalliy budjetlarning daromad bazasini tubdan mustahkamlash va nomarkazlashtirish asosida hududlarni kompleks rivojlantirishni barqaror moliyalashtirish, budjetlararo munosabatlarni yanada takomillashtirish, mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish, yangi ish joylari yaratish hamda aholi bandligini ta'minlash, muhandislik-kommunikatsiya, yo'l-transport va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish hisobiga soliq salohiyatini kengaytirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ularning mas'uliyatini oshirishni ta'minlash asosiy maqsadimizdir[11].

Mazkur vazifalarning bajarilishi mahalliy budjetlar solikli daromad bazalarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi va uning dolzarbligini belgilaydi.

Mahalliy budjetlarning daromad bazasini tubdan mustahkamlash va nomarkazlashtirish asosida hududlarni kompleks rivojlantirishni barqaror moliyalashtirish, budjetlararo munosabatlarni yanada takomillashtirish, mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish, yangi ish joylari yaratish hamda aholi bandligini ta'minlash, muhandislik-kommunikatsiya, yo'l-transport va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish hisobiga soliq salohiyatini kengaytirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ularning mas'uliyatini oshirishni ta'minlash asosiy maqsadimizdir[12].

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashning hozirgi davrida hududlarni moliyaviy barqarorligini ta'minlashda mahalliy budjetlarning ahamiyati yanada ortmoqdaki, ushbu maqsadda mahalliy budjetlarni daromadlar bazasini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy budjetlarning daromadlari mahalliy davlat hokimiyati idoralarining asosiy daromad manbai hisoblanib, ularning turlari har bir mamlakat soliq qonunchiligi asosida belgilanadi.

Mahalliy budjetlar ixtiyoridagi soliqlar va yig'imglar joriy etilgan paytdan shu kunga qadar ular tarkibida, nafaqat, son jihatdan, balki mohiyat jihatdan ham o'zgarishlarga erishildi. Bugungi kunga kelib, soliq qonunchiligining takomillashuvi natijasida soliqlar va yig'imlarning ob'ektlari, stavkalari va undirish tartiblariga o'zgarishlar kiritilib, mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlari mutanosibligini ta'minlash, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Mahalliy budjetlarning daromad va xarajatlarining davlat budjeti daromad va xarajatlaridagi ulushini hamda uning o'zgarishini tahlil qilish, mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlarining o'zaro nisbatini tadqiq etish, shu asosida ularning moliyaviy holatiga baho berish mahalliy budjetlarning mustaqilligini ta'minlash va oshirishga yo'naltirilgan muhim ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.



2019-2023-yillarda davlat budjeti daromad va xarajatlarning o'sish sur'atlari mahalliy budjetlar daromad va xarajatlarning o'sish sur'atlaridan yuqori bo'lgan. Bunday holat mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

Tegishli yillarda mahalliy budjetlar daromadlarining davlat budjeti daromadlari tarkibidagi ulushi o'rtacha 21,8 foizni, mahalliy budjetlar xarajatlarning davlat budjeti xarajatlari tarkibidagi ulushi o'rtas'ha 30,6 foizni tashkil etgan.

Mahalliy budjet xarajatlarning davlat budjeti xarajatlarning qariyb us'hdan bir qismini tashkil etishi davlatning asosiy ijtimoiy vazifalarining mahalliy budjetlar orqali moliyalashtirilayotganida namoyon bo'ladi (1-jadval).

1-jadval. Davlat budjeti va mahalliy budjetlarning daromad va xarajatlari o'zgarishi[13]. (mlrd. so'mda).

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2019 yil	2020 yil	2021yil	2022 yil	2023 yil
Davlat budjeti daromadlari	112165,4	132 938,0	164 799,4	202 043,0	232 607,0
Mahalliy budjetlar daromadlari	35134,5	27 702,9	35 173,0	43 033,2	54 946,0
Davlat budjeti xarajatlari	118008,7	144 142,7	188 257,1	236 579,0	257 734,0
Mahalliy budjetlar xarajatlari	52049,7	47 190,8	65 534,4	57 148,7	79 226,9

Jadval ma'lumotlarini tahlil qilish asosida quyidagi bir necha muhim xulosalarni chiqarish mumkin: 2019-2023 yillar davomida mamlakatimizda davlat budjeti daromadlarining umumiy summasi barcha omillarning ta'siri ostida (shu jumladan, inflyatsiya, koronavirus pandemiyasi) 2,07 martaga o'sgan bir paytda xuddi shu davrda Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda ishtirok etgan mahalliy budjetlar daromadlari umumiy summasining o'sish darajasi esa barcha omillar hisobidan (jumladan, inflyatsiya, koronavirus pandemiyasi) 1,5 martaga o'sganligini ko'rishimiz mumkin[14].

Mahalliy budjet daromadlari mos ravishda ularning solikli daromadlari tegishli davr mobaynida 1,8 martaga o'sgan. Tahlil qilingan davrda Davlat budjeti daromadlarining o'sish sur'atlari mahalliy budjet daromadlarining o'sish sur'atlaridan yuqori bo'lgan. Bir vaqtning o'zida mahalliy budjetlar solikli daromadlarining o'sish sur'atlari ularning jami daromadlari o'sish sur'atlaridan yuqori bo'lib, bunday holat hududlardagi ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal etilishi nuqtai nazaridan ijobiy holatni namoyon qiladi. 2019-2023-yillar davomida davlat budjeti xarajatlari esa 2,1 barobarga ko'raygan. Bunday holat, bir tomondan, so'nggi yillarda mahalliy budjetlar ixtiyoriga qo'shimsha daromadlarning qoldirilishi bilan izohlansa, ikkinshi tomondan, mahalliy budjet daromadlarining xarajatlarga mutanosib emasligidan darak beradi. Tahlil qilingan yillarda mahalliy budjetlarning xarajatlari hajmi daromadlariga nisbatan yuqori bo'lgan. O'z navbatida, budjet qonunshiligiga ko'ra, mahalliy budjetlar taqshillik bilan moliya yilini yakunlashiga yo'l qo'yilmaydi. Shu munosabat bilan budjetlararo o'zaro hisob-kitoblar, transfertlar va budjet ssudasi orqali mahalliy budjetlarning taqshilligi qorlanib kelinmoqda. Ammo, 2020-yilda boshlangan koronavirus pandemiyasi tufayli mahalliy budjet daromadlari, shu jumladan, solikli daromadlarida ham pasayish tendensiyasi kuzatildi. Biroq, davlat tomonidan o'z vaqtida ko'rilgan chora-tadbirlar[15] mahalliy budjetlarning barqarorligini ta'minlash, ularning xarajatlarini maqbullashtirish imkonini berdi. Shu narsani alohida qayd etish kerakki, 2019 – 2023-yillarda mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirishda solikli daromadlarining roli o'sib borganligi bilan xarakterlanadi, ya'ni bu ko'rsatkich 2019–2023-yillar oralig'ida 1,6 f.p.ga o'sgan.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida budjet masalasi juda muhim va murakkab masala bo'lib hisoblanadi. Har bir hududning rivoji, aholisining turmush sharoiti, ijtimoiy himoya, kam ta'minlangan oila va shaxslarni yetarli darajada ijtimoiy himoya qilish, har bir hududdagi davlat hokimiyati organlarining moliyaviy masalalarini to'g'ri hal qila bilishga bog'liqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi va natijaviyligi mahalliy budjetlarni o'z vaqtida va zarur miqdorda moliyaviy mablag' bilan ta'minlash, mahalliy budjetlarning daromad manbalari hajmini oshirish, xususan, bu borada mahalliy hokimiyat organlarining budjet ijrosini ta'minlashdagi manfaatdorligini kengaytirish, mahalliy budjetlar ijrosi jarayonida keng jamoatchilik fikri va ishtirokini ta'minlash muhim ustuvor ahamiyat kasb etadi. Xususan:



- Yangi o'rnatilayotgan tartibga ko'ra, daromadlar manbalari va xarajatlar turlari kesimida, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar, Toshkent shahri va respublika tumanlarining (shaharlarining) mahalliy budjetlari parametrlari, shuningdek, mahalliy budjetlarning daromadlarini oshirish rezervlarini aniqlash bo'yicha hisob-kitob ko'rsatkichlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesinde, viloyatlar, Toshkent shahri va respublika tumanlari (shaharlari) xalq deputatlari Kengashlari sessiyalarida yil choraklari kesimida atroflicha ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

- mahalliy budjetining solikli daromadlar hajmining o'zgarishiga iqtisodiyotda bandlar soni, korxonalar soni va asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi o'zgarishlarining o'zaro bog'liqligining ekonometrik modeli natijalari ko'rsatishicha: iqtisodiyotda yangi ish o'rinlarining yaratilishi va bandlikning ta'minlanishi mahalliy budjet daromadlarining ko'payishiga olib keladi; korxonalar sonining ko'payishi mahalliy budjetning solikli daromadlarini birmuncha kamayishiga olib keladi; viloyatga jalb qilinadigan investitsiyalar hajmining oshishi mahalliy budjet daromadlarining oshishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida sanab o'tgan omillar natijasida hududlar budjetida shakllanadigan daromadlar miqdori ham turlichadir. Hududlarning iqtisodiy salohiyati, tabiiy shart-sharoitlari, mehnat resurslari turlicha bo'lganligi, tabiiy ravishda ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi tafovutlarni keltirib chiqaradi. O'z navbatida, bu mahalliy budjetlar daromadlarining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni, 2022-yil 28-yanvar
2. Tommaso Oliviero, Annalisa Scognamiglio. Property tax and property values: Evidence from the 2012 Italian Tax Reform European Economic Review. <http://www.sciencedirect.com/science/article/pii>.
3. Gorina, E. Financial Sustainability of Local Governments: Effects of Government Structure, Revenue Diversity, and Local Economic Base (Doctoral dissertation). Tempe: Arizona State University. www.scopus.com.
4. O'Imasov A., Sharifxo'jaev M. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: Mehnat, 1995. – 377 b.
5. Olimjonov O. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida soliq siyosati. // Hayot va qonun. –T., 1992. - №2. – B. 8-12.
6. Shomurodov R. Soliqlarning funksiyalari. // Sharqshunoslik. –T., 2000. - №3. – B. 64-71.
7. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O'zbekiston, 1998. – 358 b.
8. Islamkulov A.X. Mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash masalalari. "Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. 2016 y, № 4.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni, 2022-yil 28-yanvar. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi «Mahalliy budjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5075-sonli Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-dekabrda «Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy budjetlarga tushumlarning to'liqligini ta'minlash bo'yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5283-sonli Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-dekabrda «Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy budjetlarga tushumlarning to'liqligini ta'minlash bo'yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5283-son Farmoni.
13. <https://openbudget.uz> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-aprelda PQ-4679-sonli «Koronavirus pandemiyasi davrida O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti barqarorligini ta'minlash va birinchi navbatdagi tadbirlarni o'z vaqtida moliyalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-aprelda PQ-4679-sonli «Koronavirus pandemiyasi davrida O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti barqarorligini ta'minlash va birinchi navbatdagi tadbirlarni o'z vaqtida moliyalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
